

Tasdiqlayman

**Jizzax viloyat statistika
boshqarmasi boshlig'i**

D.Mulladjanov

« 06 » yanvar 2026-yil

**Jizzax viloyat statistika boshqarmasi axborot xizmati bo'yicha bosh mutaxassisi
lavozim yo'riqnomasi**

I. Umumiy qism

1. Jizzax viloyati statistika boshqarmasi axborot xizmati bo'yicha bosh mutaxassisi (keyingi o'rinlarda Axborot xizmati bosh mutaxassis) Jizzax viloyati statistika boshqarmasi (keyingi o'rinlarda Boshqarma) boshlig'iga bo'ysunadi va belgilangan tartibda boshqarma boshlig'i tomonidan lavozimga tasdiqlanadi va ozod etiladi.

2. Axborot xizmati bosh mutaxassisi o'z ish faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlariga, "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi to'g'risidagi nizom"ga, "Jizzax viloyati statistika boshqarmasi to'g'risida nizom"ga va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

II. Axborot xizmati bosh mutaxassisi vazifa va funksiyalari

3. Boshqarma faoliyatiga oid yangiliklarni o'zbek tilida tayyorlash hamda ularni til qoidalari va mazmunan tahrir qilib, materiallarning mazmun-sifatiga javob beradi.

4. Matbuot anjumanlari, davra suhbatlari, seminar va boshqa tadbirlarga oid materiallarni yakuniy bosqichda tayyorlab, Boshqarma boshlig'iga taqdim etadi.

5. Axborot xizmatiga kelgan xatlarga tayyorlangan javob xatlarini ko'rib beradi.

6. Axborot xizmatiga yuqori idora va tashkilotlardan hamda Boshqarma rahbariyatidan kelib tushgan topshiriq va vazifalar bo'yicha ma'lumotlarni tayyorlab Boshqarma boshlig'iga kiritadi.

7. Boshqarma rahbariyati va xodimlarining statistika sohasiga oid tahliliy, materiallarini ommaviy axborot vositalariga chiqarishga tayyorlaydi.

8. Rivojlangan xorijiy statistika organlari axborot xizmatlari faoliyatini o'rganib, statistika amaliyotiga joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlaydi.

9. Tuman (shahar) statistika faoliyatiga oid ijtimoiy roliklar, yangiliklar va ma'lumotlarni hisobini muntazam olib boradi va Boshqarmaning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalariga joylashtirilishini nazorat qiladi.

10. Boshqarmaning ijtimoiy tarmoqlarda sahifasini yuritilishini ta'minlaydi.

11. Ommaviy axborot vositalarida chop etilayotgan ma'lumot va yangiliklarni o'rganib chiqib, soha tizimga joriy etish bo'yicha takliflar beradi.

12. Ommaviy axborot vositalari xodimlari, jumalist va blogerlarning rus va ingliz tillaridagi so'rov va murojaatlariga javob (intervyu berish, material tayyorlash, xatlarga javob berish) beradi.

III. Bosh mutaxassisining huquq va majburiyatlari:

13. Bosh mutaxassisi quyidagi huquq va majburiyatlarga ega:

Boshqarmaga kelib tushayotgan tegishli normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar bilan tanishish, xizmatda foydalanish uchun birinchi navbatda olish;

o'z xizmat vazifasi bo'yicha boshqarmaning Kengash majlislarida qatnashish;

boshqarma majlislarida, shuningdek boshqarma boshlig'ining o'rinbosarlari tomonidan o'tkaziladigan majlislarda qatnashish;

Axborot xizmati bosh mutaxassisi vakolati doirasiga tegishli masalalar bo'yicha boshqarma rahbariyatiga takliflar kiritish;

boshqarmaning tarkibiy bo'linmalari xodimlariga xujjatlar bilan ishlashda amaldagi qoidalarga rioya qilinishi yuzasidan bajarilishi zarur bo'lgan ko'rsatma va takliflarni berish;

bo'lim xodimlarini lavozim yo'riqnomalari talablarini bajarganligini inobatga olgan holda, boshqarma rahbariyatiga rag'batlantirishga yozma takliflar berish.

Noqonuniy xatti-harakatlar aniqlanganda tegishli hujjatlarni tayorlash va ko'rib chiqish uchun rahbaryatga taqdim etish;

Axborot xizmati bosh mutaxassisi tegishli hujjatlariga muvofiq boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.


Bosh mutaxassisining javobgarligi

14. Axborot xizmati bosh mutaxassisi o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarishga, boshqarma ichki mehnat tartibi, texnika va yong'in xavfsizligi, ijro va mehnat intizomi qoidalariga amal qilishga mas'uldir.

Axborot xizmati bosh mutaxassisi o'z majburiyatlari va funksiyalari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Mazkur lavozim yo'riqnomasi bilan tanishdim va uni bajarish majburiyatini, olaman:


(imzo)


(ismi, otasining ismi va familiyasi)

06.01.2026
(sana)